



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qo'choqbo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyana MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67

e-mail: til_adabiyoti@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyoti.uz

Jurnalidan ko'chirilgan maqolalar "Til va adabiyot" ta'limi dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat ma'nosini nazorat qilmaydigan fikr-mulohazalari hisoblanishi mumkin.

Tahririyatga kelgan og'ayimlar taqdir qilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Biomassazh. 2022. 25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Sharti bosma tabaqi 8.0. shkalasiga garmatirasi. 10, 11 kepl. »ECO TEXTILE PRODUCTIONS» MCHJ bosma-xonalarida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayramtina ... Adali 200 nusxa. Bahosi kelishilgan narsada.

1991-yildan chiqqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyati chiqchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komilik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostonant testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqolalar badiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir mustahkamligi	14
TAHLIL	
Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Xatolova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umid Sharmatova. Taqqaslashirilgan adabiyot ta'limida binar metodik usullar	22
O'tkir Islomov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - behalo ma'naviy boylik	22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosini - shoirning asl dardi	24
Nodira Xoligova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi	28
Iroda Xoligova. Hamza Hakimzoda niyozining dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'ov Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahorov Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining mustahkam jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'ngi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofotoy Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohgul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obraz talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'rnatish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'rnatishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining to'g'ri lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lik qalbar kuchisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lektsiklasida o'zlashtirma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rnatish mahorati	69
Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalaniishi	70
Dildora Yorbulovala. Hamza hakimizda niyozining ashularida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi	73
Nodira Xoligova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Humoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyozining she'riyatida er va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

ISSN 1691-2688

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining

Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

MUNGLIG' QALBLAR KUYCHISI

Annotatsiya. Abdulla Oripov she'rlarining eng katta mavzularidan biri, Mayoqub Qo'shjonov yozganidek, "katta harf bilan yozilishi kerak bo'lgan insoniy mehrdir". Biz bejizga maqolamizning sarlavhasini yuqoridagi nom bilan nomlamadik. Chunki, vaqti kelganda katta kishilar ham bir chindim mehrga, ozgina e'tiborga muhtoj bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov, qalb, kuychi, she'riyat, tasvir, vatan, erk, ozodlik.

Abstract. One of the great themes of Abdulla Aripov's poems, as Mayoqub Kushjanov writes, is "human kindness that should be written in capital letters." It is no coincidence that we did not name the title of our article with the above title, because when the time comes, even adults may need a pinch of love, a little attention.

Keywords: Abdulla Aripov, heart, song, poetry, image, homeland, freedom, liberty.

Аннотация. Одна из великих тем стихотворений Абдуллы Арипова, как пишет Mayoqub Kushjanov, — «человеческая доброта, которую надо писать большими буквами». Неслучайно, мы не озаглавили название нашей статьи вышеприведенным заголовком. Потому что, когда придет время, даже взрослым может понадобиться щепотка любви, и немного внимания.

Ключевые слова: Абдулла Арипов, сердце, песня, поэзия, образ, родина, свобода, воля.

Abdulla Oripov she'rlarining eng katta mavzularidan biri, Mayoqub Qo'shjonov yozganidek, "katta harf bilan yozilishi kerak bo'lgan insoniy mehrdir". Biz bejizga maqolamizning sarlavhasini yuqoridagi nom bilan nomlamadik. Chunki, vaqti kelganda katta kishilar ham bir chindim mehrga, ozgina e'tiborga muhtoj bo'lishi mumkin.

Shoirning "Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi" nomli she'rida ana shu mehmoning tirik haykali farrosh kampir obrazini yaratadi. Beshta qit'adan tanlab olingan, olamdagi barcha ilmlarni o'zida mujassam etgan olimlar yecholmagan jumboqni oddiy farrosh kampir o'zidagi mehr bilan bir zumda hal qiladi-qo'yadi. Kampir samoviy mehmonga ilmiy tomondan ta'sir ko'rsatib ham o'tirmaydi. Balki o'zining onalik qalbidagi samimiy mehrini, insoniylik izzat-ikromini izhor etadi.

Shunday qilib farrosh kampir "rangini ko'r somon deysan, suvdanmikan yo o'tdan" deya girgilton bo'ladi. Uning tikanakday tikka o'sgan "sochginasini silab" unga ichgani suv ham tutadi. Shu payt mo'jiza ro'y beradi. Kampirning mehribonligidan samoviy mehmon harakatga keladi. Bu she'r o'zining asonaviy obrazlari bilan minglab yillar insoniyatga mehrdan saboq berishi tayin. Axir, mehr zamingagina emas, insongagina emas, balki samoga ham zarurdir.

Afsuski, taraqqiyot behad va bunihoayat tez bo'lgan bizzning asrimizda o'sha "katta harf bilan yozilishi kerak bo'lgan mehr"ning bozori tobora kasod bo'lib borayotgani hech kimga sir emas. Albatta, bu hol birinchi navbatda shoir qalbinin bezovta qilishi ham shubhasizdir. Bu she'r orqali shoir o'zligimizni anglatishga, bir-birimizga nisbatan mehr-oqibatli bo'lishga chorlaydi, xoh u inson bo'lsin, xoh o'zga sayyoralik bo'lsin, biz oqibatimizni yo'qotmasligimiz kerakligini uqtiradi.

Shoirning oxirgi paytlarda yozgan she'rlarida mehrga tashnalik hissi yanada o'tirolq, yanada yozilalroq

kuylanishi bejizga emas. Chunki, oxirgi paytlarda insonlar o'rtasida, yaqin qarindoshlar, aka-uka, ota-bola munosabatlarda mehr-oqibatni ancha ko'tarilganligiga guvoh bo'lib turibmiz.

Mehr so'zi qadimda quyosh ma'nosini bildirar ekan. Mehrga muhtoj qalblarning mumtoz kuychisi bo'lgan Abdulla Oripov olamda mehru muhabbatning quyosh nurlari kabi serob bo'lishini tilaydi.

Abdulla Oripov ijodida o'zbek she'riyatidagi eng ezgu an'analar izchil ravishda davom ettirilgan. Shoir o'z she'rlarida Alisher Navoiy kuylagan insonparvarlik, ezgulik, yaxshilik, razolatga ayovsiz nafrat, insoniy sevgi va muhabbat g'oyalarni o'ziga xos o'tashin misralarda talqin etadi, o'sha g'oyalarni mehru muhabbat bilan davom ettiradi. U G'afur G'ulom va Hamid Olimjon kabi shoirlar ijodidagi vatanparvarlik motivlarini yanada jangardor pardalarda kuylaydi.

Uning "Men anglab yetgan falsafa", "Tingla, bu abadiy sado bo'ladi", "Deydilar, it hurar o'tadi karvon", "Bulbul o'gay erur zog'lar orasida" kabi o'rtliklarida xalq maqollaridan zargarona foydalanilgan. Shoir bu maqollarni shunchaki o'z fikrini isbotlash uchungina keltirmay, balki bu maqollarni yangi qirralar bilan, o'zgacha jilolar bilan boyitgani uning novatorligidir.

Shoir bu o'rtliklarga "Men anglab yetgan falsafa" deb sarlavha qo'yibdi. Ha, shoir anglab yetgan falsafa bu tirlik bozorining mangu haqiqat bo'lgan falsafasidir.

Abdulla Oripovning yana bir misrasida o'sha gulu chechaklar, kuzning za'far yaproqlaridan tortib, yomg'irlarning may'us shivirlashlarigacha tasvirlangan. Lekin bu tasvirlar inson qalbinin turli manzaralarini, inson ruhiyatining rangin suratlarini akslantirish uchun xizmat qiladi.

Shoirning yuqoridagi kabi misralarida inson ruhiyatidagi tug'yonli lahzarlar suratini tabiat manzaralari surati orqali tasvirlaganini ko'rishimiz mumkin.

Abdulla Oripov haqli ravishda mustaqillik davrida Vatan, Erk, Ozodlikni tarannum etuvchi shoir sifatida buyuk o'zbek shoiri, O'zbekiston Qahramoni va O'zbekiston xalq shoiri deb e'tirof etildi. Yangi tarixiy sharoit ijodiga yangi to'liqlar olib kirgan shoir o'zidan keyin o'zbek adabiyotida yorqin iz qoldirdi. Haj safari natijasida tug'ilgan hamda hikmatomuz hadislar talqiniga bag'ishlangan falsafiy-didaktik she'rlari so'nggi bosqich o'zbek adabiyoti ufqlarini yanada kengaytirdi, uning ko'lamini oshirdi. Abdulla Oripov linkasi orqali o'zbek she'riyatiga ko'ngil dardlarining suvratlari, ruhiy iztiroblar manzarasi, amonga aylangan orzular inson sezimlarida qoldirgan iz tasviri kirib keldi. Mazuni she'r emas, balki she'ri mavzu mukarram qiladi deb hisoblanar, shuning uchun she'ring qanday yozilishidan ko'ra, uning nima haqda ekanligi muhimroq sanalardi. Abdulla Oripov tuyg'ulari o'zbek she'riyatiga o'ylantiruvchi g'amginlik va g'amgin o'ylar olib kirdi. Shoir alohida bir odam, inson taqdiri va uning dardlari, g'amginligi mahzunligi haqidagi o'ylantiruvchi satrlari orqali kitobxon ko'ngliga kirib bordi.

Shoirning Vatan haqidagi she'rlari qatoriga Vatanning oqqush qo'shiqlaridek jaranglovchi «Men nechun sevaman O'zbekistonni», «O'zbekiston» kabi she'rlarni; istiqbol davrida yaratilgan «Vatan», «Xalq», «Temur», «Adolat oftobi», «Erk haqqi» singari manzumalarni; «Bedorlik» (1999), «Shoir yuragi» (2003) kabi yangi to'plamlardagi asarlarni; buyuk italyan shoiri Aligieri Dantening «Ilohiy komediya» sidek jahon adabiyotining mumtoz namunasi tarjimasini qo'ysak, A. Oripov ijodining naqadar serqirra ekani yanada oydin bo'ladi. Abdulla Oripov ijodida xalqni, Vatanni, fidoyi farzandlarning sevinch-tashvishlarini kuylash shoir ijodining asosiy yo'nalishidir.

Abdulla Oripov she'riyatining qudrati yuksak darajadagi badiiyligidadir. U o'zbek xalqi qalbida sermazmun she'rlari bilan chuqur iz qoldirgan, o'z ijodida Vatanga bo'lgan muhabbatni tarannum etgan vatanparvar shoiridir. Shoir she'rlarida vatanparvarlik, Vatanga sadoqat ruhi ufuq turadi. Xalq ruhida ozodlik, vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishda she'riyatning roli va o'rni beqiyosdir. She'riyat o'ziga xos, timsollar, ramz va istioralar, ohanglar orqali kishi ruhida shunday buyuk tuyg'ular uyg'otadiki, ularni qilich va qurol kuchi bilan ham yo'q qilib bo'lmaydi. Sevimli shoirimizning «Yurtim» she'ri xuddi shunday ijod mahsulidir. Ushbu qasida o'zbek xalqining buyuk tarixini, o'zligini, milliy g'ururini o'zida mujassam etgan yuksak ijod namunalaridan biridir. She'ring ilk satridanoq Vatanga, o'zbek xalqiga, uning buyuk tarixiga bo'lgan muhabbat, hurmat, ehtirom, g'urur va iftixor tuyg'ulari yaqqol sezilib turadi:

Aslida she'riyat - bu, rangin olamning inson tuyg'ulariga, inson kechinmalariga yo'ng'rilgan tasvirdir.



Ma'lumki, hamma voqea-hodisalar zamon va makonda sodir bo'ladi. Hattoki, inson qalbidagi kechgan eng mayda tuyg'ular ham.

Abdulla Oripovning Erkin Vohidovga bag'ishlangan «Arslon chorlaganda...» deb nomlangan she'rida bu ikki zamondosh shoirming ulug' maqsadlarini arslonga o'xshatadi. Buyuk qalb sohiblari bo'lmish bu shoirlarning ezuq maqsadlar shohi - arslon qoshiga chorlagandi. Va bu ulug' maqsadlarga erishish uchun ularda matonat ham, bardosh ham bor edi. Lekin ularga yo'lda qumursqalar - razil va xudbin insonlar hamroh bo'ldilar.

Jamiiyki tiriklikka tanish bo'lgan bu xatar faqat yoppa talamoqqagina yaratilgan. Axir inson ana shunday qumursqalar bilan olishib ulug' maqsadlariga erisholmay qolishi mumkin-ku. Bu she'r tiriklikning xatarli hamrohi bo'lgan qumursqanusxalarga ayovsiz aybnomadir.

Shoirning mazkur to'plamdagi ko'pgina yangi she'rlarida inson qalbini ich-ichidan yemiruvchi, aslida esa mayda tashvishlar hisoblangan illatlar xususida so'z ketadi.

Yuqorida biz ko'rib o'tgan «Arslon chorlagandi...» she'ri bilan yonma-yan «Sen uzoq yashaysan...» deb boshlanuvchi she'r ham bor. Bu she'rda inson umrini egovlovchi omillardan biri inson ruhiyatiga ozor beruvchi, uning qalbini majruh qiluvchi «beomon hislar» ekanligini kuyinib aytadi. Bu she'ri shoir shunday yakunlaydi: Yuz yil yashab o'tar dunyodan biron, Fursat manglayiga sololmas izlar. Yo'q, yo'q yillar emas ularga egov Uni yemiradi beomon hislar.

Abdulla Oripovdek shoirning qalbi ota zamin yangi-g' saxovatidir. Zamin bag'rida turfa xil gullar ochiladi, tikanlar o'sadi. Shu kabi shoirning qalbi ham o'z tuyg'ularidan turfa xil gullar - she'riyat gullarini ar-mug'on etadi.